



UDK: 81'373.21(575.143)

Abdulhay SOBIROV,
Andijon davlat universiteti professori
Barnoxon SAITOVA,
Andijon davlat universiteti akademik litseyi o'qituvchisi
E-mail: shodiyahonshodiyahon3@gmail.com

F.f.d., professor I.Azimov taqrizi asosida

ANDIJON VILOYATI ORONIMLARINING MAVZUIY GURUHLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada Andijon viloyati hududida uchraydigan oronimlarning (tog', adir, tepa, qir, dovon, cho'qqi va boshqalar) lingvistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda oronimlarning etimologiyasi, semantik qatlamlari, morfologik tuzilishi hamda tarixiy-geografik omillar bilan bog'liqligi ochib berilgan. Andijon viloyati oronimlari misolida o'zbek tilidagi geografik nomlarning shakllanish qonuniyatlari ilmiy asosda yoritilgan.

Kalit so'zlar: Oronim, toponimiya, Andijon viloyati, etimologiya, geografik nomlar, lingvistik tahlil.

THEMATIC GROUPS OF ORONYMS OF THE ANDIJAN REGION

Annotatsion

This article analyzes the linguistic features of oronyms (mountains, hills, elevations, ridges, passes, peaks, etc.) found in the Andijan region. The study examines the etymology, semantic layers, morphological structure of oronyms, as well as their connection with historical, geographical, and ethnolinguistic factors. Based on the oronyms of the Andijan region, the patterns of formation of geographical names in the Uzbek language are scientifically revealed.

Key words: Oronym, oronymy, toponymy, Andijan region, etymology, semantics, geographical names.

ТЕМАТИЧЕСКИЕ ГРУППЫ ОРОНИМОВ АНДИЖАНСКОЙ ОБЛАСТИ

Аннотация

В данной статье анализируются лингвистические особенности оронимов (названия гор, холмов, возвышенностей, хребтов, перевалов, вершин и др.), встречающихся на территории Андижанской области. В исследовании рассматриваются этимология, семантические пласты, морфологическая структура оронимов, а также их связь с историческими, географическими и этнолингвистическими факторами. На примере оронимии Андижанского региона научно раскрываются закономерности формирования географических названий в узбекском языке.

Ключевые слова: Орoним, оронимия, топонимика, Андижанская область, этимология, семантика, географические названия.

Zamonaviy tilshunoslikda atoqli otlarning tadqiqi muhim ilmiy yo'nalishlardan biri sanaladi. Onomastika – tilshunoslikning atoqli otlarni o'rganishga ixtisoslashgan sohasi bo'lib, u shaxs nomlari, joy nomlari, suv obyektlari, tog'-relyef shakllari hamda boshqa maxsus nomlarning kelib chiqishi, semantik xususiyatlari, strukturaviy tuzilishi, tarixiy rivoji va til tizimidagi o'rnini tadqiq etadi[3].

Onomastik birliklar xalqning tarixiy taraqqiyoti, madaniyati, etnik tarkibi va geografik muhitini aks ettiruvchi muhim lingvistik manba hisoblanadi[3].

Bu bo'lim umumtilshunoslik, tarixiy tilshunoslik, etnolingvistika, sotsiolingvistika hamda geografiya bilan uzviy aloqada rivojlanadi.

Onomastik ko'lam – ma'lum bir til, hudud yoki tarixiy davrga mansub atoqli otlarning miqdoriy va sifat jihatdan qamrovini ifodalovchi tushuncha bo'lib, u antroponimlar, toponimlar, gidronimlar, oronimlar va boshqa onomastik birliklarni o'z ichiga oladi.

Professor S.Karimov va tadqiqotchi S.Bo'riyevlar oronimlarni "tog'larning nomlari" deya sharhlab, cho'qqi, tepa, qir, dovon, dara, jarning nomlarini ham kiritish mumkin degan[5].

Oronimlarga ta'rif bergan T.Enazarov: "Oronim – baland, pastliklar, tog', tepalar nomi. Oronimiya – baland, pastliklar, tog' va tepalarning nomlari yig'indisi. Oronimika –

baland, pastliklar, tog', tepalar nomlarini o'rganuvchi bo'lim"[4], degan hamda oronimlar guruhiga tog', tepa, adir, qoya kabilarning nomlari kirishini qayd etgan[1].

Atoqli toponimist olim S.Qorayev: "Oronim (oros – tog', onoma – nom, ism) – tog'lar, tepaliklar, qirlar, soyliklar, daralar va boshqa orografik obyektlarning nomlari"[6], ekanligini ta'kidlab, – "Oronimlarga tog'-u toshlarga emas, balki relyefning salbiy shakllari – vodiylar, daralar, jarliklar, soyliklar, o'yiq-o'yopqlar, shuningdek, tekislik, past tekisliklar va qumliklar ham kiradi", – deb ko'rsatgan[7].

Darhaqiqat, onomastik ko'lam tarkibida oronimlar alohida va muhim o'rin egallaydi, chunki ular geografik nomlarning eng qadimiy qatlamlaridan biri bo'lib, hududning tabiiy-relyef xususiyatlarini bevosita aks ettiradi. Shuningdek, relyef obyektlari uzoq vaqt davomida o'z shaklini saqlab qolganligi sababli, ularning nomlari ham kam o'zgaradi. Bundan tashqari, oronimlar onomastik ko'lamda geografik yo'naltiruvchi va madaniy-axborot tashuvchi vazifani bajaradi. Ular hududning tabiiy sharoiti, tuproq tarkibi, rang xususiyatlari, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda tarixiy voqealar haqida muhim ma'lumot beradi. Shu jihatdan oronimlar toponimik tizimning asosiy tayanch unsurlaridan biri hisoblanadi.

Ayniqsa, Andijon viloyati hududida uchraydigan oronimlar mintaqaning tabiiy-relyef xususiyatlari, tarixiy

taraqqiyoti hamda etnolingvistik muhitini yaqqol aks ettiradi. Viloyat Farg'ona vodiysining sharqiy qismida joylashganligi sababli bu yerda tog'oldi adirlari, qirlar va past tog' tizmalari bilan bog'liq oronimlar keng tarqalgan.

Shu bois, viloyat oronimlarini lingvistik nuqtayi nazardan qayta tahlil qilish dolzarb masala hisoblanadi.

Oronimlarning nomlanishi tasodifiy bo'lmay, u muayyan lingvistik va ekstralingvistik omillar asosida amalga oshadi. Nomlash jarayonida insonning tabiiy muhitni idrok etishi, xo'jalik faoliyati, tarixiy tajribasi va madaniy qarashlari muhim rol o'ynaydi. Tilshunoslikda oronimlarning nomlash tamoyillari bir necha asosiy guruhlariga ajratiladi.

1. Relyef shakliga asoslangan nomlash

Andijon viloyati oronimlari tarkibida tepa, adir, qir, tog' komponentlari faol qo'llanadi. Masalan, Mo'g'ultog', Dalvarzintepa kabi oronimlar relyef shakli semantikasini ifodalaydi. Bu nomlar hudud tuprog'i va tog' jinslarining tashqi ko'rinishiga ishora qiladi.

Adir komponentli oronimlar esa viloyatning tog'oldi zonalariga xos bo'lib, relyefning bosqichma-bosqich ko'tarilishini ifodalaydi.

Jumladan, DALVARZIN – Andijon shahrining g'arb tomonidagi sobiq qishloq (hozir shahar mahallasi) va Jalaquduq tumani hududidagi arxeologik yodgorlik nomini olaylik. Qadimgi istehkom xarobasi bo'lgan.

Eski o'zbek tilida "Dalvarzin" ("Dal" (tal) – tepa, "var" – qal'a, qo'rg'on) – "Tepalikka qurilgan qal'a-istehkom" – degan ma'nolarini ifodalashi qayd etiladi (akademik Y.G'ulomov tekshirishlarining qo'lyozmalari). Demak, Andijonning sobiq Dalvarzin qishlog'i o'rinda qadimiy qal'a-istehkom bo'lganligi mumkin. Mazkur yodgorliklarning aksariyati xo'jalik faoliyati natijasida saqlanib qolmagan. Jalaquduq tumanidagi Dalvarzinda esa bundan uch ming yil ilgari davrga oid shaharcha qoldiqlari, tepaliklar hamon saqlanadi. Keyinchalik bu joylarga odamlar kelib o'mashib, o'sha urug'-qabila ham "Dalvarzin" nomi bilan atalib, etnotoponimga aylanib ketgan (ya'ni, joy nomi urug' nomiga aylangan). O'zbekistonning janubiy tomonlarida ham shu nomdagi qishloqlar ko'plab uchraydi.

Shuningdek, Sirdaryoning o'ng qirg'og'idagi (O'zbekistonning Toshkent viloyati) dashtning nomi ham shunday ataladi.

O'zbek arxeologi A.R.Muhamedjanovning fikricha, dalvarzin so'zi arabcha dal, – tal – "tepalik", "qo'rg'on", eroncha var – "qal'a", "qasr" so'zlaridan kelib chiqqan va zi (zin) – yer deganidir. Yana ham ishonchliroq etimologiyasi bo'yicha, dalvarzin mo'g'ulcha dorboljin – "to'rtburchak" (hozirgi mo'g'ul tilida dorvoljin – "kvadrat") so'zidan kelib chiqqan. Qadimgi istehkomlarning qoldiqlari ham dorboljin deb atalgan".

Qadimgi turkcha to'rtko'l, forscha choldevor (xususan, chordevor), mo'g'ulcha dorboljun aynan bir xil: "sobiq istehkomlarning kvadrat xarobalari" ma'nosini ifodalaydi. Dalvarzin dashtini tojiklar Dilvarzin deb atashadi, Afg'onistonning Balx vohasidagi tarixiy viloyat Dilberjin tarzida nomlanadi. Bu nomlarning barchasi mo'g'ulcha "dorboljin", "dorvoljin" so'zlaridan kelib chiqqan[8].

2. Rang belgisiga asoslangan nomlash

Relyef obyektining tashqi ko'rinishi, tuproq yoki toshlarning rangi nomlashda muhim omil bo'lgan: Oqtepa (och rangli tuproq), Qiziltepa (qizg'ish jinslar), Qoratepa (qoramtir relyef). Sariqtepa, Oqqir, Qorachatir, Ko'ksaroy (tog') Qoratog', Qoramozor

Shular orasida, OQTEPA – Andijon viloyati Oltinko'l tumaniga qarashli qishloq bo'lib, u balandlikka qurilgan qadimgi qo'rg'on o'rindir. Oqtepa hajm jihatdan ikki qismga ajratilgan: Katta Oqtepa va Kichik Oqtepa.

Ustoz Yahyo G'ulomovning yozishicha ("Xorazmning sug'orilish tarixi". – Toshkent. Fan, 1959), turk xoqonligi davridan boshlab (V asr) dehqonchilik vohalarida dala o'rtasida katta imorat (ko'shk)lar vujudga kelgan. Xarobalari hozirgacha saqlanadi.

O'zbekiston viloyatlaridagi katta miqdordagi qishloqlar va joylarning nomi, ba'zan qo'rg'on nomi sifatida ham keltirilgan: Andijon viloyati Andijon va Baliqchi tumanlari; Farg'ona viloyati Qo'shtepa, Uchko'prik va Buvayda tumanlari; Jizzax viloyati Zomin tumani; Samarqand viloyati Ishtixon va Paxtachi tumani; Toshkent viloyati Qibray tumani;

Madaniy qatlamlarning qoldiqlari va feodal dehqonlar o'sha paytlari ilk o'rta asrlar qal'a qurilishlari buzilgan joylar ham shunday nomlangan. Demak, yaqin-yaqinlargacha Toshkent shahrining o'zida sakkizta Oqtepa bo'lgan. Tepaliklar tabiiy va sun'iy holda paydo bo'lgan, sun'iy tepaliklar strategik omil sifatida yaratilgan.

Xorazm viloyati Bog'ot tumanida ham shunday nomli toponim mavjud bo'lib, u shunday izohlangan: "Oqlik – poklik ramzi. Qadimda mahallada 4 ta tepalik bo'lib, uning tepa qismi oqarib ko'rinib, quyosh nurida yaltirab nur sochib turgan". Shularni inobatga olgan holda hudud shunday nomlangan. Shu nomdagi toponimlar Mustaqil diyorumizning ko'plab hududlarida uchrashini ta'kidlash zarur.

Piskent tumanidagi qishloqlardan biri ham Oqtepa deb nomlangan. Oqtepa – balandlik joyda bunyod etilgan qadimgi qo'rg'on o'rni. Oq so'zi bu o'rinda ham katta, baland, yuksak ma'nosiga ega. Oq tepa – yon-atrofida shu tipdagi boshqa balandliklardan hajman katta bo'lgan tepa.

QORATEPA – tog' nomi. Qora – pastqam balandlik, yonidagi boshqa tepalikdan bo'ylama ko'lami jihatidan farq qilinishini bildiradi.

3. O'simlik dunyosiga asoslangan nomlash

Hududda keng tarqalgan o'simlik turlari oronimlarda aks etgan: Archaqir (archa o'simligi), Yulg'unlitepa (yulg'un o'simligi). Shuningdek, Andijon viloyatida o'simlik nomlari bilan bog'liq oronimlar ham uchraydi. Masalan, Archaqir oronimi hududda archa o'simligining tarqalganligini bildiradi.

4. Hayvon nomlariga asoslangan nomlash

Fauna bilan bog'liq nomlar hududning tabiiy sharoiti yoki mifologik tasavvurlar bilan aloqador: Bo'ritepa, Tulkiqir. Tuyamo'yin Bu tamoyil qadimgi tasavvurlarni ham aks ettiradi.

BO'RILIK – Qo'rg'ontepa tumaniga qarashli qishloq. O'zbek va qirg'izlarning kichik bir urug'ining nomi. Shayboniylar davridan shu urug'ga mansub kishilar o'mashib qolgani sabab bu joy shunday deb atalib ketgan. Qadimda qirg'izlarda bo'rini muqaddas urug'boshi deb bilish ham bo'lgan (Chingiz Aytmatov qissasidagi bo'ri obrazi shu haqidagi afsonaga asoslanadi).

Bo'ritepa singari nomlar hayvon nomlari asosida shakllangan bo'lib, qadimgi fauna yoki mifologik tasavvurlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bu nom qadimda mazkur hududda bo'rilar ko'p uchraganini ham bildiradi. Bunday oronimlar hududning tabiiy sharoiti bilan bir qatorda, aholi dunyoqarashini ham aks ettiradi.

5. Xo'jalik va inson faoliyatiga asoslangan nomlash

Insonning kundalik faoliyati nomlashda muhim bo'lgan: Ko'mirtepa (ko'mir bilan bog'liq), Yaylovtepa (chorvachilik). Bu oronimlar iqtisodiy hayot haqida ma'lumot beradi.

6. Tarixiy voqea va shaxslar bilan bog'liq nomlash

Ba'zi oronimlar tarixiy hodisa yoki shaxs nomi bilan bog'liq: Qo'rg'ontepa, Xonqir. Dadaboytepa, Kamoltepa, Ular madaniy-tarixiy xotirani saqlaydi.

Masalan, QO'RG'ONTEPA – Andijon viloyatida shu nomli tuman markazi joylashgan katta qishloq-shaharcha.

Umuman, O'zbekiston hududida "qo'rg'on" so'zi qo'shilib aytiladigan aholi punktlari ko'plab uchraydi. Birgina Farg'ona vodiysida Uchqo'rg'on, Bozorqo'rg'on, Tepaqo'rg'on, Yangiqo'rg'on, To'raqo'rg'on va h.k.lar bor. Bu xildagi joy nomlarining tarixi ikki davr bilan bog'liq. Yo arablar kelgach vayron qilinib, yangidan qad ko'targan joy yoki mo'g'ullar istilosidan so'ng paydo bo'lgan qishloqlar. Ayrimlari esa (masalan, Tepaqo'rg'on, Qo'rg'oncha) Shayboniylar davri bilan bog'liq. 1976-yili Qo'rg'on tepaning qadimiy qismida (Eski Qo'rg'on tepada) arxeologik tekshirishlar olib borilganda VII asrga oid ashyolar va turarjoy qoldiqlari kovlab olingan[8].

Demak, Qo'rg'on tepaning tarixi eramizning dastlabki asrlariga borib taqaladi.

Qo'rg'on tepa-tuproqni uyib ko'tarilgan, ko'pincha mustahkamlangan sun'iy tepalik (qurimoq so'zidan) qorovultepa, tuproqo'rg'on ham deyilgan. Bunday tepaliklar dushmanning qayoqdan kelayotganini bilish va qo'shni qo'rg'on tepaga xabar qilish, iloji bo'lsa yovga pand berish uchun xizmat qilgan. Toshkentda ham shunday tuproqo'rg'onlar bo'lgan. O'rta Osiyoda ana shunday qorovultepalar turli joylarda chosh(tepa), shosh(tepa), shish(tepa), ba'zan qisqartirib Qoratepa deb ham atagan(forscha chosh-uyum o'zgarib shosh shaklini ham olgan). Shish esa bo'rtiq degani. Professor Y.Masson bu so'zlarni so'g'diycha deydi.

7. Diniy tushunchalar bilan bog'liq nomlash
Eshontog'a, Fozilmonota, Imomota.

8. Affiksatsiya va lingvistik modellar asosida nomlash

O'zbek tilida affiksalar yordamida oronimlar yasaladi: -lik, -li, -chi qo'shimchalari: Tepalik, Qirlik. Bu til ichki imkoniyatlariga asoslangan tamoyildir.

Bu eng qadimgi va eng keng tarqalgan tamoyil hisoblanadi. Unda relyefning shakli va turi asosiy belgi sifatida olinadi: tepa, tog', qir, adir, dovon kabi terminlar. Masalan, Tepalik, Adirlik oronimlari relyefning umumiy ko'rinishini bevosita ifodalaydi. TEPALIK – qishloq. Farg'ona viloyatining

Buvayda tumani. Tepalik – alohida tepalik, balandlik ma'nosini anglatadi.

9. Son bilan bog'liq nomlash

Mingtepa, Uchtepa, Beshtepa, Chilustun, Beshbo'z, Beshbani, O'ttizadir, Beshbo'ynoq

BESHBO'YNOQ – Andijon shahrining shimolidagi qadimiy qishloq. Qadimgi turkiy tilda tog'ning ingichka siqiq joyi Bo'ynoq atalgan va ikki balandlikni tutashtirgan oraliqqa aytilgan. Hozirgi Beshbo'ynoq qishlog'ining qadimgi o'rni Andijon-Bo'taqora adirlarining yonbosh-etak qismi cho'zilib ketgan balandlik tepaliklarning oralig'i edi. XVI asrdan boshlab o'zbek urug'lari o'mashib, landshaft asrlar davomida o'zgarib ketgan.

10. Etnonim bilan bog'liq nomlash

Mo'g'ultog', Beshkapa, Qurama tog'

BESHKAPA – qishloq. U O'zbekistonning turli viloyatlarida uchraydi. Masalan, Samarqand viloyati Urgut tumani; Andijon viloyati Asaka tumani; Farg'ona viloyati Beshariq tumani, Namangan viloyati Uchqo'rg'on, Yangiqo'rg'on tumanlari. "Beshkapa" – etnonim; adagine qirg'iz qabilasida Beshkepe urug'i, qoraqalpqlarda Kepe urug'i, o'zbeklarda Kapa urug'i bo'lgan.

Mazkur toponim Farg'ona vodiysida ham keng tarqalgan joy nomlaridan hisoblanadi. Qamishdan yasalgan, usti somonli loy bilan suvalgan uylar – kapa deyilgan. Beshkapa – beshta kapa ma'nosidadir. Beshkapa bora-bora urug' nomi – etnonimga aylangan. Viloyatda Beshkapa, Kapa, Kapasaroy, Kapayangi, Katta Beshkapa, Kichik Beshkapa, Pastki Beshkapa, Yuqori Beshkapa kabi qishloq va mahallalar bor. Ushbu kapa so'zi orqali hosil qilingan toponimlar respublikamizda joy nomi sifatida 40 martaga yaqin takrorlanishini, uning asosiy qismi Farg'ona vodiysida ekanligini qayd etish mumkin

Xulosa. Andijon viloyati oronimlari onomastik ko'lamda muhim ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, ular til, tarix va geografiya o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni namoyon etadi. Ularning lingvistik tadqiqi mintaqaviy toponimiyaning shakllanish qonuniyatlarini aniqlashda va xalqning tarixiy-madaniy merosini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston joy nomlarining izohli lug'ati. –Toshkent, 2022. – 623-bet.
2. Begmatov E. O'zbek tili antroponimikasi. –Toshkent: Fan, 2013. – 264-bet.
3. Begmatov E., Uluqov N. O'zbek onomastikasi. –Namangan, 2008. –168-bet.
4. Ernazarov T. Nomshunoslik masalalari. –Toshkent, 2010. –78- bet.
5. Karimov S.A., Bo'riyev S.N. O'zbek toponimikasi taraqqiyot bosqichida. –Toshkent: Fan, 2006. –44-bet.
6. Qorayev S. Geografik nomlar ma'nosi. –Toshkent: O'zbekiston, 1978. –193-bet.
7. Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006. – 66-bet.
8. O'zbekiston joy nomlarining izohli lug'ati. –Toshkent, 2022. – 623- bet.